

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.Gr.09.11 RAQAMLI KENGASH ASOSIDAGI BIR  
MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**KODIROVA MAXFUZA MAXMUDOVNA**

**OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIGA  
"MATERIKLAR VA OKEANLAR TABIIY GEOGRAFIYASI" FANINI  
O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (geografiya)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

UO'K: 91(575.1): (371.3)

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Kodirova Maxfuza Maxmudovna**

Oliy ta'lim muassasalari talabalariga "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi"  
fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish..... 3

**Кодирова Махфуза Махмудовна**

Совершенствование методики преподавания предмета «Физическая  
география материков и океанов» студентам высших учебных заведений..... 21

**Kodirova Maxfuza Maxmudovna**

Improving the methodology of teaching the subject "Physical Geography of  
continents and oceans" to students of higher educational institutions..... 39

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 43

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.Gr.09.11 RAQAMLI KENGASH ASOSIDAGI BIR  
MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**KODIROVA MAXFUZA MAXMUDOVNA**

**OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARIGA  
“MATERIKLAR VA OKEANLAR TABIIY GEOGRAFIYASI” FANINI  
O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (geografiya)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2026**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Ped8217 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме) Ilmiy kengashning veb-sahifasi ([www.samdu.uz](http://www.samdu.uz)) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Alimkulov Nusratillo Raxmonkulovich  
geografiya fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:** Mustafayev Shomurod Normuminovich  
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

G'aniyev Ziyodulla Akramovich  
geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:** Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Gr.09.11 raqamli Ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil 16-fevral soat 15:00 daqi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 140104, Samarqand sh., Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel.: (+99899) 776-77-25, faks: (+99866) 239-11-40; E-mail: [ik-geografiya2019@mail.ru](mailto:ik-geografiya2019@mail.ru)).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ 6 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 233-60-87.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 3-fevral kuni tarqatildi.  
(2026-yil 31-yanvardagi 1-raqamli reyestr bayonnomasi).



**S.B. Abbasov**  
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, g.f.d., professor.

**B.A. Meliyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash kotibi, g.f.f.d.(PhD), dotsent.

**N.Q. Komilova**  
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, g.f.d., professor.

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda bo'lajak mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion mexanizmlarini takomillashtirish, bo'lg'usi pedagoglarning metodik kompetentligini rivojlantirishning samarali modellarini ishlab chiqishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Pedagogika oliy o'quv yurtlarida talabalarning kasbiy faoliyatga motivatsion yo'naltirilgan zamonaviy o'quv muhitini yaratishda yangi metodikalarni qo'llash, o'qitishning amaliyotga yo'naltirilgan strategiyalarini ishlab chiqish va joriy etishga muhim ustuvorlik berilmoqda. YUNESKO tomonidan 2030-yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida ta'limga oid dasturlarni takomillashtirish, o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan, gender tenglikka asoslangan shakllarini joriy etish, tabiiy-ilmiy savodxonlikni keng targ'ib qilishga doir qator loyihalar joriy qilinmoqda.

Dunyoda tabiiy, xususan, geografiya fanini o'qitish sifati va samaradorligini oshirish, bo'lajak geografiya o'qituvchilarining amaliy kompetentligini rivojlantirish, geografiya interaktiv ta'limida emotsional ifodaviy vositalardan foydalanish metodikasi, geografiyani o'qitishning statistik metodlari tizimini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, yangi avlod geografiya darsliklaridan bo'lajak o'qituvchilarni samarali foydalanishga tayyorlash, modulli o'qitish vositasida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirish, geografiya ta'limida geoinformatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish muhim dolzarblik kasb etadi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya oliy ta'lim va maktab geografiya ta'limining istiqbolli yo'nalishlarini aniqlashtirishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda oliy ta'limi sifatini yaxshilash, o'quv jarayoniga innovatsion va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, o'qitishning yangi shakllarini tatbiq etish, pedagogik ta'limning jozibadorligi va samaradorligini oshirish, pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yagona yondashuv asosida tubdan takomillashtirish, ta'lim sohasida uzviylik va uzluksizlikni hamda ilm-fan va amaliyot uyg'unligini ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda. "Ta'lim muassasalarining pedagogika sohasidagi ijobiy tajribasini, shuningdek, o'qitish va ta'lim oluvchilar bilimlarini baholashning zamonaviy uslublarini ommalashtirish, pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonini tashkil etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish"<sup>1</sup> muhim ustuvorlik kasb etadi. Bu esa, oliy ta'lim muassasalarida "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" fanini raqamli texnologiyalar vositasida o'qitishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish, "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" fanini o'qitishning edukologik modelini ishlab chiqish, "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" fanini o'qitishda elektron ta'lim vositalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirishni taqozo etadi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.06.2022-y., 07/22/289/0562-son.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 11-iyuldagi PF-5763-son “Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustivor yo‘nalish doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Respublikamizda geografiya fanini, fanning nazariy va metodik asoslarini tadqiq etishda H.Hasanov, M.Qoriyev, N.Dolimov, H.Vahobov, A.Abulqosimov, P.G‘ulomov, A.A.Qayumov, A.Rafiqov, P.Baratov, L.Alibekov, N.Alimkulov, M.Mirakmalov, S.Abduvohidov, N.Sabitova, Z.Saidkarimovalarning ilmiy-metodik ishlarini alohida ta‘kidlash joiz. Tadqiq etilayotgan muammo yuzasidan oliy pedagogik ta‘lim tizimida kadrlar tayyorlash milliy modelining eng muhim bo‘g‘ini sifatida isloh etilayotganligi geografiya yo‘nalishi talabalariga “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fanini o‘qitishni ilmiy jihatdan tadqiq etishning nafaqat imkoniyatlarini yaratdi, ayni paytda, buni nazariy hamda amaliy dolzarb vazifaga aylantirdi. Pedagogik innovatsiyalar: metodologiya, nazariya, amaliyot va ta‘lim muassasalarida innovatsion ta‘limni rivojlantirish hamda takomillashtirish borasida yurtimizda geografiya o‘qitish metodikasi sohasida O.Mo‘minov, P.Musayev, X.Vahobov, R.Qurboniyozov, J.Musayev, U.Safarov, H.Nikadambayeva, Q.Bahromov, M.Abduraxmonov, S.Matsaidova, S.Haydarova, D.Abdullayeva, F.Hamroyeva, S.Ibragimova, M.Lutfillayev, A.Janzakovlarning ilmiy tadqiqot ishlari e‘tiborga molik.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlarida “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fanining muammolari sohasida V.Galay, I.Juchkevich, T.Pritula, Ye.Romanova, M.Lavrinovich, A.Ryabchikov, A.Spryalin, V.Yeryomina, T.Vlasova, S.Abdulmyanov, N.Alekseyeva, G.Nechepurenkolar samarali mehnat qilganlar.

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan ayniqsa, M.Shepherd, A.Strahler, T.F.McIlwraith, E. K.Muller, E.McMahon, S.Scoffham va boshqalarning tadqiqot ishlarida esa bevosita tabiiy geografiya fani va ta‘limi muammolari o‘rganilgan.

Biroq oliy ta'lim muassasalarida "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" fanini raqamli texnologiyalar vositasida o'qitishning didaktik imkoniyatlari innovatsion yondashuvlar asosida ochib berilmaganligi, mazkur fanni o'qitishning edukologik modeli va metodik asoslari maxsus tadqiq etilmagan. Ana shu sababli oliy ta'lim muassasalarida "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishga doir ilmiy izlanishlar olib borish lozim, degan xulosaga kelindi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining "Pedagogik yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha ilg'or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta'lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish" nomli ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan. (2020-2024 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** oliy ta'lim muassasalarida "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

oliy ta'lim muassasalarida "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" fanini raqamli texnologiyalar vositasida o'qitishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

"Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" fanini o'qitishning edukologik modelini ishlab chiqish;

"Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" fanini o'qitishda elektron ta'lim vositalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish;

"Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" fanini o'qitish jarayonida talabalarning o'quv faoliyati natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish va samaradorligini baholash.

**Tadqiqotning obyekt**i sifatida oliy ta'lim muassasalarida "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" fanini o'qitish jarayoni tanlangan bo'lib, tajriba-sinov ishlariga Toshkent davlat pedagogika universiteti, Navoiy davlat pedagogika instituti va Andijon davlat universitetining 313 nafar geografiya ta'lim yo'nalishi talabalari ishtirok etgan.

**Tadqiqotning predmet**ini oliy ta'lim muassasalarida "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" fanini o'qitish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda tabiiy-ilmiy, umumkasbiy, psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili, modellashtirish, tajriba-sinov, pedagogik monitoring, test, so'rovnoma, suhbat shuningdek, bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarining faoliyatini kuzatish, qiyosiy tahlil, olingan natijalarni matematik va statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

"Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" fanini raqamli texnologiyalar vositasida o'qitishning didaktik imkoniyatlari talabalarning geografik tafakkuri,

fazoviy tasavvuri va sabab-oqibatli tahlil ko'nikmalariga asoslanib, tabiiy ob'yektlar bilan ishlashda fazoviy-koordinatsion axborotlarni kartografik taqdim etish amaliyotini geovizual analitik darajaga proporsionalligi orqali aniqlashtirilgan;

“Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fanini o'qitishning edukologik modelining amaliy-texnologik komponenti talabalarning ijodiy va tadqiqotchilik kompetensiyalarini geoinformatsion texnologiyalar vositasida rivojlanishiga ko'ra, materiklarga oid kosmik tasvirlar, spektral ma'lumotlarni masofaviy zondlashning didaktik algoritmlarini refleksiv siklli bog'lanishlarga muvofiq qo'llash orqali takomillashtirilgan;

fanni o'qitish metodikasi o'qituvchi-talaba kollaboratsiyasining blok-modulli strukturasi ko'ra tabiiy ob'yektlarni kartografik-fazoviy koordinatsiyasini gorizont va vertikal semiotik birliklar orqali differensial kodlash asosida takomillashtirilgan;

fanni o'qitish jarayonining samaradorligi tabiiy ob'yektlarning joylashuvini raqamli globuslar, geoaxborotlar orqali aniqlash qobiliyati muhimligiga ko'ra kartografik ko'nikmalar va georafik fikrlashni metakognitiv darajada vizual-fazoviy tafakkurga bog'liq rivojlantirish asosida oshirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

“Toponimika. Geografiyadan masala va mashqlar” darsligi chop etilgan;

“Tabiiy geografiya fanidan amaliy mashg'ulotlar” va “Umumiy yer bilimi (amaliy mashg'ulotlar)” o'quv qo'llanmalari chop etilgan.

“Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” elektron darsligi (DGU40101) yaratilgan;

“O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi” fanidan elektron qo'llanma (DGU17337) yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ishda qo'llanilgan metodlar, foydalanilgan nazariy va amaliy yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik statistika metodlari yordamida asoslanganligi, metodika, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oliy ta'lim muassasalarida “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fanini o'qitish jarayoni pedagogik, interfaol metodlar va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish natijasida bo'lajak geografiya fani o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qiladigan bilim, axborotlarni taqdim etish vositalari, yo'llari va usullarini takomillashtirishning o'qitish sifatiga oid ko'rsatkichlar tizimi asosida tashkil etilganligi, “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fanining malaka talablari va o'quv dasturlari innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar, olingan natijalar, axborot-kommunikatsiya va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fanini o'qitish

metodikasini takomillashtirish natijasida me'yoriy-huquqiy hujjatlar, chora-tadbirlar dasturlarini tayyorlash, «Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi» fani ta'limi samaradorligi bo'yicha malaka talablari mazmuniga metodik jihatdan singdirishga va o'qitish sifatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Oliy ta'lim muassasalari talabalariga "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishga oid tadqiqot natijalari asosida:

"Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" fanini raqamli texnologiyalar vositasida o'qitishning didaktik imkoniyatlari talabalarning geografik tafakkuri, fazoviy tasavvuri va sabab-oqibatli tahlil ko'nikmalariga asoslanib, tabiiy ob'ektlar bilan ishlashda fazoviy-koordinatsion axborotlarni kartografik taqdim etish amaliyotini geovizual analitik darajaga proporsionalligi orqali aniqlashtirishga doir takliflar "Tabiiy geografiya fanidan amaliy mashg'ulotlar" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligini 2023-yil 29-maydagi 232-sonli buyrug'i, 232948 raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, talabalarining "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" fanini o'qitishda amaliy mashg'ulotlarni interfaol metodlar asosida tashkil etish imkoniyati oshirilgan;

"Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" fanini o'qitishning edukologik modelining amaliy-texnologik komponenti talabalarning ijodiy va tadqiqotchilik kompetensiyalarini geoinformatsion texnologiyalar vositasida rivojlanishiga ko'ra, materiklarga oid kosmik tasvirlar, spektral ma'lumotlarni masofaviy zondlashning didaktik algoritmlarini reflektiv sikllik bog'lanishlarga muvofiq qo'llash orqali takomillashtirishga oid takliflar "Toponimika. Geografiyadan masala va mashqlar" darsligi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-maydagi 232-sonli buyrug'i, 232943 raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, talabalarining ushbu fan yuzasidan ta'lim olish mazmuni va sifatiga qo'yiladigan davlat talablari mazmunini kengaytirish imkoni yaratilgan;

fanni o'qitish metodikasi o'qituvchi-talaba kollaboratsiyasining blok-modulli strukturasi ko'ra tabiiy ob'ektlarni kartografik-fazoviy koordinatsiyasini gorizontal va vertikal semiotik birliklar orqali differensial kodlash asosida takomillashtirishga doir takliflar "Umumiy yer bilimi (amaliy mashg'ulotlar)" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302-sonli buyrug'i, 302-0794 raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, geografiya yo'nalishi talabalarining kasbiy-metodik faoliyat tayyorlash mexanizmi takomillashtirilgan;

fanni o'qitish jarayonining samaradorligi tabiiy ob'ektlarning joylashuvini raqamli globuslar, geoaxborotlar orqali aniqlash qobiliyati muhimligiga ko'ra kartografik ko'nikmalar va geografik fikrlashni metakognitiv darajada vizual-fazoviy tafakkurga bog'liq rivojlantirish asosida oshirishga doir takliflar "Tabiiy geografiyadan amaliy mashg'ulotlar" nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 23-maydagi 232-sonli buyrug'i, 232948 raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, geografiya yo'nalishi talabalarining o'zlashtirish darajasini baholashning informatsion

mezonlari, fanga oid indikatorli tuzilma hamda interfaol ta'lim metodlari asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta respublika va 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish nashr etilgan, jumladan, 1 ta darslik, 1 ta elektron darslik, 2 ta o'quv qo'llanma, 1 ta elektron o'quv qo'llanma, 2 ta metodik qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 8 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Tadqiqot ishining tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, 145 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining **kirish** qismida olib borilgan tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi va aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining elon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning I bobi **“Oliy ta'lim muassasalari talabalariga “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishning nazariy asoslari”** deb nomlanib, unda asosan oliy ta'lim tizimida “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fanining mazmuni va o'qitishning nazariy asoslari, fanni interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalari vositasida o'qitishning umumiy xususiyatlari va fanni o'qitish metodikasini takomillashtirishning didaktik tamoyillari, shakl va vositalari o'rganilgan.

Mamlakatimizda mahalliy o'zbek olimlaridan geografiya ta'limi metodikasi bo'yicha professor O.A.Mo'minov (1986), P.Musayev (1992), X.Vaxobov (1992), U.X.Safarov (1994), R.Qurboniyozov (2001), M.Abduraxmonov (2001), H.Nikadambayeva (2012), F.Hamroyeva (2020), B.M.Abduraxmonov (2021), F.R.Saydamatov (2021), D.N.Abdullayeva (2021), A.B.Janzakov (2021), J.P.Musayev (2022), X.N.Amonov (2023), S.A.Haydarova (2022), O.U.Abdimurotov (2022) va boshqalar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Ammo, ularning tadqiqotlari ma'lum bir fanni o'qitishga qaratilmaganligini ta'kidlagan holda oliy ta'limda o'qitiladigan “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fanining dasturiy mazmuni va o'qitish metodikasini takomillashtirishni talab qiladi. Fan dasturiga mos ravishda “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fanining tuzilish mazmuni va sxemasi ishlab chiqildi. Fan mazmunining tahliliiy natijalariga ko'ra ushbu fanni o'qitishda bir qancha

muammolar mavjud ekanligi aniqlandi, jumladan: ushbu fandan amaliy mashg'ulotlarini, mustaqil ta'lim topshiriqlarini talab darajasida tashkil etmaslik; fandan mashg'ulotlarda olib borilayotgan ta'lim jarayonlarida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan kerakli foydalanilmaslik; fan bo'yicha ishlab chiqilgan darsliklar va o'quv qo'llanmalarga yangiliklar kiritilmaganligi; fan bo'yicha elektron ko'rinishdagi ta'lim vositalari (elektron darsliklar, elektron o'quv filmlari, videodarslar, elektron nazorat testlari, animatsion dasturlar, multimedia ilovalari, veb-saytlar) ning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi; fanni o'qitishda fanlararo ahamiyatga ega bo'lgan muammolarning ishlab chiqilmaganligi va b.

Ta'lim jarayonida "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirib borish, zamonaviy innovatsion texnologiyalar, interfaol usullar hamda rolli didaktik o'yinlardan unumli foydalanish, o'qitish sifatini oshirishga bo'lgan yangicha qarashlar, amaliyot mobaynidagi muammoning mamlakatimizda va rivojlangan xorijiy mamlakatlarda o'rganilganligi haqidagi barcha ma'lumotlar nazariy va ilmiy - pedagogik jihatdan tahlil qilindi.

Oliy ta'limda "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" fanini o'qitish davomida ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar va usullardan foydalanishning asosiy ko'rinishi quyidagilardir:

*birinchidan*, geografiyaning barcha fanlarini olib borish davomida axborot ko'laminin juda ko'pligi, kengligi va tezda yangilanib borayotganligini inobatga olish lozim;

*ikkinchidan*, jamiyatda texnika taraqqiyotining tezlashishi, interaktiv, zamonaviy ta'lim jarayonidagi vositalarini tez taraqqiy qilayotganligi;

*uchinchidan*, o'qitishning turli xil zamonaviy texnik vositalari taraqqiy etib borayotganligi;

*to'rtinchidan*, tashqi ta'sirlar, talabalar uchun bundanda qiziqroq bo'lgan omillar, telefon, internet, ijtimoiy tarmoqlarining mavjudligi. Bunday ta'sirlar bugungi kun mashg'ulotlarini zamon talabi darajasida o'tishni talab etadi.

Muallif tomonidan "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishga xizmat qiluvchi interfaol metodlardan (Toifalash jadvali, Muammoli vaziyat, Qarorlar shajarasi, Tushunchalar tahlili), ta'lim texnologiyalaridan (FSMU, Rezyume, Hamkorlik) foydalanishning samaradorligi aniqlandi va ilmiylik, sistemalilik, fundamentallik, ta'limli va izchil yondashuv, ko'rgazmalilik, ta'lim va tarbiyaning uzviyligi va boshqa tamoyillar asosida o'qitish lozimligi ta'kidlandi va fan doirasida 10 ga yaqin interfaol dars mashg'ulotlari YouTube ([https://www.youtube.com/watch?v=lhntC6e\\_eiI](https://www.youtube.com/watch?v=lhntC6e_eiI), <https://youtu.be/9eHVxAPbKAY>, <https://youtu.be/7mgtApB0otc>, [https://youtu.be/j\\_tNBaFI4Cw](https://youtu.be/j_tNBaFI4Cw), <https://www.youtube.com/watch?v=hJ3wxKWyQn0>, <https://www.youtube.com/watch?v=CPBRFPzRY0>) ijtimoiy tarmog'iga joylashtirildi va fandan mustaqil ishlarni ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida, o'quv faoliyatlarida talabalarning bilim va ko'nikmalarini olishda, yangi materiallarni o'rganishda va mustahkamlashga oid tavsiyalar ishlab chiqildi. Fanga oid amaliy topshiriqlar namunalari keltirildi va metodikasi ishlab chiqildi, fanning mustaqil ta'limni bajarish metodikasi takomillashtirildi.


Dissertatsiyaning “Oliy ta’lim muassasalari talabalariga “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fanini o’qitish metodikasi” deb nomlangan ikkinchi bobida “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fanini o’qitishni takomillashtirishning metodik ta’minoti, Oliy ta’lim muassasalarida fanni o’qitish metodikasini takomillashtirishning tarmoqli modeli va fanni o’qitishda elektron ta’lim resursidan foydalanish metodikasi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Fanni o’qitishda oliy ta’lim muassasalaridagi faoliyatning borishi, o’qitish sifatini yaxshilash, ularni yanada rivojlantirish, fan doirasida o’quv hamda metodik shuningdek, axborot ta’minotini yanada mustahkamlash, bo’lajak mutaxassislarining axborot – vositalaridan texnologiyalardan foydalanish ishlash madaniyatiga ega bo’lgan har bir sifatli malakali pedagog kadrlar qilib tarbiyalash masalalari o’rganildi. “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fanini o’qitishda foydalanish tavsiya etiladigan elektron ta’lim resurslaridan Ispring Suite dasturi orqali elektron testlar, yani bitta va ko’p javobli, “to’g’ri-noto’g’ri” ko’rinishidagi, “ha” yoki “yo’q” javobli, yopiq testlar, o’zaro moslik o’rnatish, javoblarni tartiblash kabi o’ndan ortiq shakldagi testlar yaratildi. Yaratilgan elektron testga nom berish, testdan o’tish balini o’rnatish, testni bajarishning maksimal vaqtini o’rnatish va test boshlanishdan oldin tizim topshiruvchining ismini va elektron pochtasini so’rash funksiyalarini qo’shish imkoniyatlari ham mavjud.

Oliy ta’lim muassasalarida “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fanini o’qitishda “Eclipse crossword (Krossvordli Jumboq)” dasturidan foydalanib dars jarayonini olib borish talabalarning ushbu fanga bo’lgan qiziqishlarini oshishiga, fan bo’yicha mustaqil izlanish, xulosalar qabul qilish, tushuncha va atamalarining mazmun-mohiyatini chuqurroq tushunib yetishlarga yordam beradi. Shuningdek, Krossvordli jumboq dasturi talabalarning so’z boyligini oshishiga yordam beruvchi dastur hisoblanib, ularning terminologik savodxonligini shakllantirishda juda qulay va samarali bo’lgan elektron ta’lim resursi ishlab chiqildi va fanni o’qitishda foydalanish orqali talabalarning joy nomlari bilan bog’liq bilimlarini yanada kengayishiga, geografik atama va tushunchalarni tez va oson o’zlashtirishlariga, geografik terminlarning talabalar xotirasida uzoq vaqt saqlanib qolishiga xizmat qiladi. Oliy ta’lim muassasalarida o’qitiladigan “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fani mamlakatimizda geografiya ta’limining eng muhim asosi hisoblanib, tezkor sur’atlarda rivojlanayotgan fanlardan biridir. Tadqiqotimizda ushbu fanni o’qitish metodikasini takomillashtirishda zamonaviy pedagogik asoslangan ilmiy xulosalar, amaldagi me’yoriy hujjatlarda belgilangan talablar doirasida o’quv jarayoni uchun “Oliy ta’lim muassasalarida “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fanini o’qitish metodikasini takomillashtirish” modeli ishlab chiqildi.

Ushbu model talabalarning “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fani bo’yicha bilim, ko’nikma va malakalarini takomillashtirishga qaratilgan va ularning kasbiy sifatleri, shaxsiy fazilatleri alohida ochib berilgan.

Oliy ta’lim tizimida “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fanini o’qitish jarayonida kompyuter texnologiyalarini qo’llash masalasi ko’p qirrali bo’lib, uning uchta asosiy yo’nalishi ajratib ko’rsatiladi: *birinchidan*, bu amaliy mashg’ulot darslarida informatsion texnologiyalarni to’g’ridan-to’g’ri qo’llanadi;




**1-rasm. Oliy ta'lim muassasalarida “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli**

ikkinchidan, talabalarning darsdan tashqari mashg'ulotlarini tashkillashtirish uchun informatsion texnologiyalarni qo'llash; uchinchidan, axborot texnologiyalari bilimga yo'naltirilgan bo'sh vaqtni ta'minlashga (talabaning aqliy rivojiga ko'maklashuvchi o'yinlar, elektron ensiklopediyalar kabi) qaratilgan.

“Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fanidan o'quv materialining elektron taqdimotda animatsiyalar shaklida berilishi o'tilayotgan mavzuni tushunishni yengillashtiradi va ko'rgazmalilikni oshiradi. Tadqiqot vazifalari asosida oliy ta'lim muassasalarida “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish maqsadida “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” elektron darsligi[53;-DGU40101] va “O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi” fanidan elektron qo'llanma[54;-DGU17337] ishlab chiqildi.

“Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fanidan elektron darslikning maruza, amaliy, mustaqil ta'lim mashg'ulotlarida elektron darslikning keltirilgan modul komponenti asosida talabalar o'z tasavvurlarini boyitadi va to'ldiradi (2-rasm).



2-rasm. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi fani elektron darslik moduliga kirish oynasi.

“Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fanidan elektron darslikdan foydalanishning o'quv jarayonidagi o'rni va ahamiyati quyidagi jadvalda aks etgan (1-jadvalga qarang).

**“Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” elektron darsligining o‘quv jarayonidagi o‘rni va ahamiyati**

O‘qituvchi uchun afzalliklari	Talabalar uchun afzalliklari
Nazariy ma’lumotlarni zamonaviy texnologiyalar vositasida namoyish etadi.	Axborot savodxonligi oshadi.
Talabalarning fanlarga bo‘lgan qiziqishani oshiradi.	O‘quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.
Fanga doir axborotlardan unumli foydalanadi.	Ma’lumotlarni tez va oson o‘zlashtiradi.
Dars jarayonida ko‘rgazmalilik oshadi	Bilim, ko‘nikma va malakalari oshib boradi.
qisqa vaqt ichida katta hajmdagi ma’lumotlarni talabalarga yetkaza oladi.	Mavzularga oid qo‘shimcha ma’lumotlarga ega bo‘ladi.
Ta’lim jarayonining samaradorligiga erishadi.	Kreativlik qobiliyati oshadi.
O‘quv-mashg‘ulotlarini masofaviy tarzda tashkil etadi.	Mavzu materialini darsdan tashqari vaqtlarda ham takrorlash orqali o‘z bilimlarini mustahkamlaydi.

**Dissertatsiyaning “Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va ularni o‘tkazish”** deb nomlangan uchinchi bobida pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda pedagogik kuzatuv, anketa, suhbat, pedagogik tajriba, interfaol metodlar, matematik-statistik metodlardan foydalanildi.

Pedagogik tajriba - sinov ishlari ilmiy tadqiqotning asosiy metodi sifatida qo‘llanilib, unda asoslovchi (2021-2022 o‘.y.), shakllantiruvchi (2022-2023 o‘.y.) va ta’kidlovchi (2023-2024 o‘.y.) bosqichlardan foydalanish nazarda tutiladi. Asoslovchi tajriba bosqichida tadqiq etilayotgan muammoni aniqlashga yo‘naltirilgan ilmiy pedagogik faoliyat tashkil etildi. Shakllantiruvchi tajriba bosqichida tavsiya etilayotgan didaktik va metodik ta’minotlar asosida amaliy-metodik faoliyat olib borildi. Ta’kidlovchi tajriba bosqichida tavsiya etilayotgan didaktik va metodik ta’minotlarning samaradorlik darajasi aniqlandi.

Pedagogik tajriba-sinovni o‘tkazishda innovatsion texnologiyalar asosida “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” faniga doir o‘qitiladigan didaktik, tarqatma va dars ishlanmalariga oid materiallar mazmunining oliy ta’lim muassasalaridagi ahamiyati quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- oliy ta’lim muassasalari talabalarining «Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi» faniga qiziqishlarini kuchaytirish va materiallarni o‘rganishning tarbiyaviy ahamiyatligi;


- auditoriyada va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda mazkur fanga oid modulli ta’lim materiallarning fanga bo‘lgan qiziqishni orttirishdagi ta’limiy-tarbiyaviy ta’siri;

-fanni modulli ta'lim materiallari va innovatsion texnologiyadan foydalanib, o'qitishning talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hamda mustaqil fikrlashni rivojlantirishdagi ahamiyati va b.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari Toshkent davlat pedagogika universiteti, Andijon davlat universiteti, Navoiy davlat pedagogika instituti bakavlavriat yo'nalishi talabalari bilan "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" kurslarini o'qitish misolida tanlab olindi.


Dastlab, talabalar bilim darajasi aniqlandi, buning uchun tanlangan tajriba va nazorat guruhlarida "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" fani bo'yicha og'zaki so'rov hamda 20 ta mashq va masaladan iborat test asosida sinov o'tkazildi. Guruhlardagi talabalar natijalariga ko'ra, guruhlarning o'zaro bilim darajasi yaqin ekanligini ko'rsatdi va har ikki guruhlarda pedagogik tajriba - sinov o'tkazildi. Guruhlar nazorat guruh sifatida tanlandi va ularga an'anaviy usulda dars mashg'ulotlari kompyuterda tayyorlangan metodik ishlanmalar asosida tashkil qilindi.

Fan mavzularini ikkala guruhlarda ham to'liq o'tilib bo'lgandan so'ng, har ikkala guruhlarda mazkur bo'lim mavzulariga tegishli sinov so'rovlari va test sinovlari o'tkazildi hamda quyidagi natijalar olindi (3, 4, 5-rasmlar).




**3-rasm. 2021-2022 o'quv yili oxirida talabalarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari**

Xulosa qilinganda, nazorat guruhi va tajriba guruhidagi talabalarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari har bir bosqichda dastlabki tekshiruvda farq mavjud emasligi va o'quv yili oxiridagi natijalarda farq mavjulligini ko'rsatdi.



**4-rasm. 2022-2023 o'quv yili oxirida talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari**



**5-rasm. 2023-2024 o'quv yili oxirida talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari**

Mashg'ulotda axborot texnologiyalaridan foydalanish «Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi» fani mavzularini o'rganishni osonlashtiradi. Bu talabalarni o'rganayotgan mavzusini o'zlashtirish darajasini oshiradi. Bundan tashqari, bu jarayon o'qituvchiga talabalarning o'zlashtirish darajasiga qarab, o'rganilayotgan mavzu yuzasidan qo'shimcha savollarni shakllantirishga yordam beradi. Tadqiqot ishida «Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi» fanini axborot texnologiyalari asosida o'rganish masalalari ustida tegishli izlanishlar olib borildi va ularning natijalari bevosita amaliyotga bog'langan. Demak, ta'lim jarayonida axborot texnologiyasidan foydalanish mavzuni tushuntirishni, o'zlashtirishni, bilimlarni nazorat qilishning haqqoniyligini oshiradi.

Umumiy natija sifatida fan bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari quyidagicha bo'ldi: samaradorlikni aniqlovchi qiymatlari har bir mezonlar bo'yicha mos ravishda Axborotli (AKT bilan ishlash savodxonligini aniqlash metodikasi) bo'yicha 1.16 barobarga, Talabalar bilim darajasini aniqlash metodikasi bo'yicha 1.15 barobarga, kommunikativ qobiliyatni aniqlash metodikasi bo'yicha 1.16 barobarga, kasbiy qobiliyatni aniqlash metodikasi bo'yicha 1.14 barobarga yuqoriligi ya'ni umumiy o'rtacha samaradorlik 15%ni tashkil etgani, Student statistikasining qiymatlari 6,82, 6,72, 7,35 va 6,27 bo'lgani uchun kritik qiymatdan katta bo'lib  $H_1$  gipoteza qabul qilindi. Oxirgi 2023-2024 o'quv yilidagi o'rtacha qiymatlar tengligi haqidagi ilgari surilgan faraz o'z tasdig'ini topdi. Shuning uchun ham olingan natijalarida tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan farq mavjud va ishonch hamda aniqlanish ko'rsatkichlari ham farqli qiymatlarga egaligi ilgari surilgan tadqiqot ishining samarador ekanligini aniqlandi.

## XULOSA

Oliy ta'lim muassasalarida «Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi» fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari quyidagi xulosa va tavsiyalarni taqdim etish uchun asos bo'ldi:

1. «Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi» o'quv fanini o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalar muhiti asosida usullarning takomillashtirilgan mexanizmlarini yaxlit tizim sifatida ishlab chiqish, ularning afzallik tomonlarini ko'rsatish va bu usullarni qo'llash orqali samaradorlikka erishish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

2. Innovatsion texnologiyalar va axborotlashgan muhit asosida «Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi» fanini o'qitishning mazmuni, usullari, vositalari, shakllari va pedagogik shart-sharoitlari, tamoyillari o'rganildi. Oliy ta'lim pedagog xodimlarida innovatsion faoliyatni shakllantiruvchi, uning nazariy va amaliy asoslarini ilmiy jihatdan asoslab beruvchi manbalar hamda shu yo'nalishda mavjud muammolarni hal qilishga oid uslubiy tavsiyalar va qo'llanmalarining tanqisligi aniqlandi. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash natijasida «Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi» fanini o'qitishning samaradorligini ta'minlash imkoniyatlari mavjudligi asoslab berildi. Olib borilgan tadqiqot aynan shu muammoning yechimiga qaratilib, «Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi» fanini o'qitishda

innovatsion texnologiyalarni qo'llashning uslubiy ta'minot kompleksi yaratildi. Uslubiy qo'llanmalar va tavsiyalar geografiya ta'limida samaradorlikni ta'minlashga qaratilgan.

3. Oliy ta'lim muassasalarida "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" fanini o'qitishda tanqidiy hamda ijodiy tafakkurni rag'batlantirish, uslubiy tayyorgarlikni oshirish, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari hamda o'qitishning interfaol usullariga oid nazariy va amaliy bilimlardan foydalanish, ko'nikma va malakalarni muntazam takomillashtirib borish va ularni amaliyotda qo'llash orqali talabalarning kelgusidagi kasbiy kompetentligi shakllantirildi.

4. Oliy ta'lim muassasalarida "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" fanini o'qitishda fan mavzulari innovatsion pedagogik muhit asosida tizimlashtirilgan, u yangi didaktik imkoniyatlarni ochishga hamda mazkur o'quv fani mavzularini o'qitish samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

5. Oliy ta'lim muassasalarida "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" fanidan amaliy mashg'ulotlar, namoyishli tajribalar, mustaqil ta'limni tabiiy va virtual shakllarda auditoriya sharoitida tashkil etish va o'tkazish, fanni o'qitishda innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini integratsiyalash asosida talabalarning motivatsion, kreativ, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishga erishish va vaqt sarfini optimallashtirish mumkinligi tadqiqot jarayonida o'z tasdig'ini topdi.

6. O'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov natijasiga ko'ra innovatsion texnologiya muhitida "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" fanini o'qitishda erishilgan samaradorlik matematik statistik usullar yordamida isbotlandi. Shu asosda "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" fanini o'qitishda qo'llanadigan hamda ta'lim sifatini oshirishning pedagogik kafolati sifatida qarash mumkin bo'lgan pedagogik shart-sharoitni yuzaga keltirish imkoni yaratildi. Oliy ta'lim muassasalarida "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" fanini o'qitishni takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishi yakuniyning samaradorligini tasdiqladi.

7. "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" fanida ma'lumotlarni o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy-uslubiy tavsiyalar va o'quv-uslubiy qo'llanma geografiya ta'limida samaradorlikni oshirishga qaratilgan bo'lib, Malaka talablarida belgilangan malaka va talablarni ta'minlashga xizmat qiladi.

## TAVSIYALAR

Oliy ta'lim muassasalarida "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" fanini o'qitish metodikasi hamda talabalarning bilim, malaka va ko'nikmalariga qo'yilgan talablarni takomillashtirishga oid quyidagi taklif va tavsiyalar taqdim etildi:

1. "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" fani Oliy ta'lim tizimida o'qitiladigan geografiya fanlari ichida muhim, ko'lami keng, katta hajmdagi ma'lumotlarni o'z ichiga qamrab olganligi bois, ushbu fandan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlardan o'quv soatlari hajmini ko'paytirish;

2. “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fanidan uslubiy ta’minotni takomillashtirish maqsadida uning mazmuniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini keng joriy etish va ulardan mashg’ulotlarda unumli foydalanish;

3. “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fanini o’qitishda ilg’or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish bo’yicha ilmiy-uslubiy qo’llanmalar (ham o’qituvchi, ham tahsil oluvchi uchun) yaratish ko’lamini kengaytirish;

4. Pedagogik oliy ta’lim muassasalari professor-o’qituvchi va talabalarining “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fani bo’yicha uslubiy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan multimediali elektron axborot resurslarini yaratish va ulardan “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fani mashg’ulotlarida samarali foydalanishni yo’lga qo’yish maqsadga muvofiq.

5. “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fanini multimediyali vositalar orqali o’qitishni samarali tashkil etish ta’lim berayotgan o’qituvchidan yuqori darajadagi pedagogik mahorat, fanga oid chuqur bilim, puxta tajriba va elektron ta’lim vositalaridan erkin foydalana olish malakasiga ega bo’lishni talab etadi. Oliy ta’lim muassasasi o’qituvchisi talabalarining fan yuzasidan yuqori o’zlashtirish darajasiga ega bo’lishini ta’minlashda mazkur talablarga to’liq javob berishi kerak.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ DSc.03/2025.27.12.Gr.09.11  
ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ  
ИМЕНИ ШАРАФА РАШИДОВА**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
УЗБЕКИСТАНА**

**КОДИРОВА МАХФУЗА МАХМУДОВНА**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ  
ПРЕДМЕТА «ФИЗИЧЕСКАЯ ГЕОГРАФИЯ МАТЕРИКОВ И  
ОКЕАНОВ» СТУДЕНТАМ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ**

**13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания (география)**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО  
ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**



## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире большое значение придается совершенствованию инновационных механизмов подготовки будущих специалистов к профессиональной деятельности, разработке эффективных моделей развития методической компетентности будущих педагогов. В педагогических вузах при создании современной учебной среды, мотивационно ориентированной на профессиональную деятельность студентов, значительный приоритет отдается применению новых методик, разработке и внедрению практико-ориентированных стратегий обучения. ЮНЕСКО в рамках Целей устойчивого развития до 2030 года реализует ряд проектов по совершенствованию образовательных программ, внедрению личностно-ориентированных, основанных на гендерном равенстве форм обучения, широкому продвижению естественнонаучной грамотности.

В мире ведется ряд научных исследований, направленных на повышение качества и эффективности преподавания естественных наук, в частности географии, развитие практической компетентности будущих учителей географии, методики использования эмоционально-выразительных средств в интерактивном обучении географии, совершенствование системы статистических методов обучения географии. Особую актуальность приобретает подготовка будущих учителей к эффективному использованию нового поколения учебников географии, формирование методической компетентности будущих учителей географии в средствах модульного обучения, совершенствование методики использования геоинформационных технологий в географическом образовании. В то же время цифровая трансформация требует уточнения перспективных направлений высшего образования и школьного географического образования.

В нашей стране большое внимание уделяется повышению качества высшего образования, широкому внедрению инновационных и информационных технологий в образовательный процесс, внедрению новых форм обучения, повышению привлекательности и эффективности педагогического образования, коренному совершенствованию системы подготовки педагогических кадров на основе единого подхода, обеспечению преемственности в сфере образования, гармонии науки и практики. Важным приоритетом является «Популяризация положительного опыта образовательных учреждений в области педагогики, а также современных методов оценки знаний обучающихся, широкое внедрение информационно-коммуникационных технологий в организации образовательного процесса высших учебных заведений, осуществляющих подготовку педагогических кадров». Это потребует уточнения дидактических возможностей преподавания предмета «Физическая география материков и океанов» в высших учебных заведениях с помощью цифровых технологий, разработки эдукологической модели преподавания предмета «Физическая география материков и океанов», совершенствования методики использования

электронных средств обучения при преподавании предмета «Физическая география материков и океанов».

Данная исследовательская работа в определенной степени служит при выполнении поставленных задач в Указах Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», от 29 апреля 2019 года № УП-5712 «Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года», от 11 июля 2019 года № УП-5763 «О мерах по реформированию управления в сфере высшего и среднего специального образования», от 6 ноября 2020 года № УП-6108 «О мерах по развитию сферы образования и науки в новый период развития Узбекистана», от 5 июня 2018 года № ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших учебных заведениях и обеспечению их активного участия в проводимых в стране широкомасштабных реформах» и выполнению задач, предусмотренных другими нормативно-правовыми документами, относящимися к данной деятельности.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Диссертационная работа выполнена в рамках приоритетного направления развития науки и техники республики «В социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии информационного общества и демократического государства, формировании система инновационных идей и пути их реализации».

**Степень изученности проблемы.** В нашей республике в исследовании науки географии, теоретических и методологических основ науки следует отметить научно-методические работы Х. Хасанов, М. Кориева, Н. Долимова, Х. Вахобова, А. Абулкосимова, П. Гуломова, А.А. Каюмова, А.А. Рафикова, П. Баратова, Л.А. Алибекова, Н.Р. Алимкулова, М.Т. Миракмалова, С. Абдувахидова, Н.И. Сабитовой, З.С. Саидкаримовой. Тот факт, что реформирование национальной модели подготовки кадров в системе высшего педагогического образования являясь важнейшей частью исследуемой проблемы не только создал возможности научного исследования преподавания «Физической географии материков и океанов» студентам специальности «География», но и сделал это теоретической и практической актуальной задачей. Педагогические инновации: в области методологии, теории, практики и развития инновационного образования в образовательных учреждениях и совершенствование методики преподавания географии в нашей стране научные исследования О.А. Муминова, П. Мусаева, Х. Вахабова, Р. Гурбанизова, Ж.П. Мусаева, У.Х. Сафарова, Х.Б. Никадамбаевой, К. Бахромова, М. Абдурахманова, С. Матсаидовой, С.А. Хайдаровой, Д.Н. Абдуллаевой, Ф.А. Хамровой, С.Б. Ибрагимовой, М.Х. Лутфиллаева, А.Б. Жанзакова заслуживают внимания.

В странах Содружества Независимых Государств в области проблем науки «Физическая география материков и океанов» плодотворно трудились

